

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**V RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

MART, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, mart

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 5-son (mart, 2026-yil).- 42 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-mart

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Darmonov Rустem

ПАЛЕОЭКОНОМИКА ЧИРИКРАБАТСКОЙ КУЛЬТУРЫ В
НИЗОВЬЯХ СЫРДАРЬИ (IV–II ВВ. ДО Н.Э.) 4-8

IQTISODIYOT FANLARI

Matyoqubov Arslonbek

MINAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINING
TA'SIRI 9-13

PEDAGOGIKA FANLARI

Yuldasheva Maftuna

TA'LIMDA INKLUZIV VA KORREKTSION YONDASHUVLARNI INTEGRATSIYALASH
METODIKASI 14-19

Raxmanova Nigora

SHARQ UYG'ONISH DAVRI TA'LIM MUASSASALARIDA USTOZ–SHOGIRD INSTITUTINING
TASHKILY MODELLARI 20-25

Kamolov Baxtiyor

EKOTURISTIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR VA
ULARNING SAMARADORLIGI 26-31

Tojiboyeva Shohistaxon

TANQIDIY FIKR YURITISHNI RIVOJLANTIRISHDA “PROBLEM-BASED LEARNING”
YONDASHUVINI QO'LLASH METODIKASI 32-35

Yuldasheva Sevara

KASBIY TA'LIM TIZIMIDA TARBIYAVIY FAOLIYATNI RAQAMLASHTIRISHNING
INSTITUTIONAL MEKANIZMLARI 36-41

TANQIDIY FIKR YURITISHNI RIVOJLANTIRISHDA “PROBLEM-BASED LEARNING” YONDASHUVINI QO‘LLASH METODIKASI

Tojiboyeva Shohistaxon Komiljonovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
Fakultetlararo chet tili kafedrası dotsenti v.b,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

Annotatsiya: Ta'lim mazmunida “tayyor bilimlarni o'zlashtirish” o'rniga, “amalda muammoni aniqlash, uni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqish, muqobil yechimlarni baholash, xulosa chiqarish” kabi faoliyat turlari ustuvor bo'lib qolmoqda. Problem-based learning (PBL) – muammoli vaziyat orqali o'rganishni tashkil qiluvchi yondashuv – aynan shunday ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali ekani, bu jarayonda tanqidiy fikrni shakllantirish tushunchasi bilan chambarchas bog'liqligi ilmiy-pedagogik jamoatchilikda e'tirof etilmoqda. Mazkur tezısa tanqidiy fikrlash hamda problem-based learning yondashuvining nazariy asoslari, ularning bir-biriga uzviy bog'liqligi, o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida qanday qo'llanilishi, xususan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun qanday strategik ahamiyat kasb etishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Tanqidiy fikr, “PBL” yondashuvining asosiy tamoyillari, muammoni o'rganish, kontekstual o'qitish, tahlil qilish ko'nikmalari, kreativlik, o'zgaruvchan muhit, interfaol metodlar, axborot oqimi.

METHODOLOGY OF USING THE “PROBLEM-BASED LEARNING” APPROACH IN DEVELOPING CRITICAL THINKING

Tojiboyeva Shohistaxon Komiljonovna

Acting Associate Professor of the Interfaculty Department of Foreign Languages,
Termez University of Economics and Service,
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Annotation. In the content of education, instead of “acquiring ready-made knowledge”, activities such as “identifying a problem in practice, developing strategies for solving it, evaluating alternative solutions, drawing conclusions” are becoming a priority. Problem-based learning (PBL) - an approach that organizes learning through a problem situation - is effective in developing precisely such skills, and in this process it is closely related to the concept of forming critical thinking. This thesis analyzes the theoretical foundations of critical thinking and problem-based learning, their interdependence, how they are used in the professional activities of teachers, and in particular, their strategic importance for future English language teachers.

Key words: Critical thinking, basic principles of the "PBL" approach, problem-based learning, contextual learning, analytical skills, creativity, changing environment, interactive methods, information flow.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i5/n06>

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi har bir o'quvchi va talabani shunchaki tayyor bilim bilan ta'minlash emas, balki ularning mustaqil fikrlash, ijodkor yondashuv, tanqidiy tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishni maqsad qilib olgan. Tanqidiy fikr yuritish (critical thinking) – har bir shaxsga ilmiy-ijtimoiy, texnik va hayotiy masalalarni izchil, dalil-isbot, turli nuqtayi nazar, muqobil yechimlarni baholash orqali hal qilish, hissiy bayonot va manipulyatsiyalarga berilmaslik, qarorlarda xolis bo'lish imkonini beradi. Bunday tanqidiy fikrni rivojlantirish jarayonida problem-based learning (PBL) yondashuvi sotsiopsixologik hamda didaktik tamoyillar nuqtayi nazaridan keng e'tibor qozonmoqda.

Tanqidiy fikrlash – shaxsning har qanday ma'lumotni izchil, dalil-isbotlar asosida sinchiklab o'rganish, muqobil nuqtayi nazarlarni hisobga olish, xolis xulosa chiqara olish va tayyor stereotiplardan xoli bo'lish ko'nikmasidir. Bugungi kunda o'quvchi (yoki talaba) jamiyatda turli axborot xurujlari, manipulyatsiyalar, soxta yangiliklar bilan duch keladi, shu bois tanqidiy fikr yuritish "axborot immuniteti"ni shakllantiradi. Barrows o'z tadqiqotlarida shaxs mustaqil ravishda o'zida tanqidiy yondashuvni shakllantirish uchun problemali vaziyatlarda dalillarga tayanishi, qarama-qarshi dalillarni ko'rib chiqishi, xulosalarni qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'lishi muhimligini alohida ta'kidlaydi[1]. Richard Paul tanqidiy fikrni "har qanday keltirilgan g'oya va dalillarni mantiqiy sintez, dalil-isbotni chuqur ko'rib chiqish, manipulyatsion yoki asossiz komponentlarni rad etish orqali xolis xulosa qilish jarayoni" deb ta'riflaydi. Unga ko'ra, shaxs tanqidiy fikr orqali mustaqil bilish, ongli qaror qabul qilish, bag'rikeng diskussiyaga ochiq bo'lish kabi fazilatlarini o'zlashtiradi[2].

Bo'lajak o'qituvchining tanqidiy fikr kompetentligi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari – o'quvchilarga chet tilidan foydalanish orqali turli manbalardan (adabiy, ilmiy, publicistik, blog, ijtimoiy tarmoq) xabar olish, ularni baholash, lingvistik hamda madaniy qirralarini o'rganish ko'nikmalarini singdiradigan shaxs sifatida ularning axborot savodxonligiga ham mas'uldir. Shunday ekan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi o'zi tanqidiy fikrni egallamagan bo'lsa, turli feyk xabarlar, noto'g'ri tarjima, manipulyatsion ifodalar, hissiy bo'rttirishlarga duch kelishi, o'quvchilarga esa biryoqlama axborotni tarqatishi ehtimoli ortadi. Howard Gardner xotira va fikr jarayonlari tadqiqotlari misolida o'qituvchining kognitiv faoliyati, turli ma'lumotlarni saralash, hissiy reaksiyadan xalos bo'lish, dalillarni izchil tahlil qilish kabi bosqichlarda professional yondashuv lozimligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, mustahkam tanqidiy fikr yuritish abilitalariga ega bo'lgan o'qituvchining darslari ancha ijodiy, hamkorlikka asoslangan, manipulyatsiyalarga qarshi turgan holda ma'lumotni tahlil qilish jarayonini yuksak darajada ta'minlaydi[3].

"Problem-based learning" (pbl) mazmuni va o'qituvchining tanqidiy fikrini rivojlantirishdagi ahamiyati. PBL yondashuvi: muammoli o'qitish modeli. Problem-based learning (PBL) – bu muammoli vazifa, real hayotiy keys yoki vaziyat oldida o'quvchilarni (yoki talabalarning) mustaqil dalillarni qidirish, savollar berish, qarorlar ishlab chiqish, bahslar orqali xulosa tuzish jarayoniga jalb etadigan metodika hisoblanadi. Donald R. Woods ta'kidlashicha, PBL shaxsda bir vaqtning o'zida bir necha muhim ko'nikma – mustaqil izlanish, tanqidiy fikr, jamoada ishlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish, anglash – rivojlanishiga imkon beradi

PBL yondashuvining asosiy tamoyillari:

Muammoli vazifa: o'quvchilarga javobi oldindan tayyor bo'lmagan, real hayotdan olingan keys yoki voqea taqdim etiladi;

Izlanish: ishtirokchilar turli manba, statistika, intervyu, maqola topib, dalillarni jamlashadi;

Bahs-munozara: guruh ichida yoki umumiy bahs doirasida qarama-qarshi fikrlar, shubhali manbalar ko'rib chiqilib, xolis savollar berish orqali muammo ochib beriladi;

Xulosa: integratsiya, sintez bosqichida ishtirokchilar eng asosli yechim yoki xulosaga kelishadi.

Tanqidiy fikr yuritishni rivojlantirishda pbl mexanizmlarining bosqichlari. Muammoli keys (problem scenario) tanlash. PBL yondashuvida muammo – darsning markaziy qismi.

Sylvia C. Chard fikricha, muammoli keys qanchalik real va qiziquvchanlik uyg'otadigan bo'lsa, o'quvchilarning tanqidiy fikrga jalb etilishi ham shunchalik samarali bo'ladi. Keysi taklif etilayotgan masala oldindan aniq "javob"ga ega bo'lmasligi, turli nuqtayi nazar yuzaga kelishini ta'minlashi lozim. Masalan: bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun "Chet tili darsida jarayonni yanada ijodiy va interaktiv qilish uchun qaysi texnologik vositalar uyg'un – VR (virtual reality) yoki an'anaviy kitob?" kabi muammo taqdim etilishi mumkin.

Izlanish va resurslar jamlash. Dann C.L. "PBL" jarayonida har bir ishtirokchi mustaqil yoki jamoada muammoni o'rganish uchun turli resurslar (ilmiy maqola, blog, intervyu, statistika, so'rovnoma, videorolik) topishi, keyin guruhda ularni tahlil qilishi muammoga tanqidiy yondashuvni mustahkamlashini ta'kidlaydi. Izlanish bosqichida tanqidiy fikrni rag'batlantirish uchun, Kimdan dalil olish (rasmiy, norasmiy, ishonchli, manipulyatsion)?, Qaysi manbalar turlicha qarash bildirishi mumkin?, O'quvchilarning hissiy (taxmin, taxayyul) va daliliy (fakt, ma'lumot) yondashuvlarini ajratib ko'rsatish.

Munozara va fikr almashish (discussion). Izlanish bosqichidan keyin har bir kishi yoki guruh topgan dalillarni o'rta tashlab, "Qaysi dalillar mustahkam, qaysi biri asossiz? Qaysi blogger shunchaki hissiy reaksiya bildirgan, kim ilmiy jihatdan isbot keltirgan?" kabi savollar bilan bahs boshlanadi. Helen Redwood tadqiqotlarida PBLning "discussion stage" – o'quvchilarda mantiqiy, tanqidiy fikr yuritish, savol-javob qilish, manipulyatsiyani fosh etish, ijtimoiy va bag'rikeng munosabat bilan qarama-qarshi nuqtayi nazarlarga ham hurmat ko'rsatish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishini qayd etadi.

Yechimlar ishlab chiqish va baholash. Guruhlar (yoki individual ishtirokchilar) muammo bo'yicha o'z yakuniy tavsiyasini, dalil-isbotga asoslangan xulosasini tuzadi. Morgan T. B. nazarida, tanqidiy fikr aynan shu bosqichda "mustahkam xulosa" sifatida namoyon bo'lib, avvalgi bosqichlarda to'plangan dalil, izchillik, qarama-qarshi dalillarga e'tibor, manipulyatsion elementlarni rad etish kabi jarayonlar sintezi kuzatiladi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pbl yondashuvini qo'llash. Metodik ahamiyat. Ingliz tili o'qituvchilari uchun PBL metodining joriy etilishi nafaqat lingvistik, balki tanqidiy, ijtimoiy, madaniy jihatlarni o'rganishga ham imkon yaratadi. Shulman, Lee S. fikricha, chet tili darsida til o'qitish "fan mazmuni + pedagogik texnologiya + muammoli yondashuv" integratsiyasidan o'tishi lozim. Bu jarayon bo'lajak o'qituvchining darsni to'g'ri loyihalash, o'quvchilarda tanqidiy tafakkur uyg'otish, turli matn va kontekstlarda manipulyatsiya yoki muqobil fikrlarni ko'ra bilish kabi masalalarga tayyor turishini ta'minlaydi[.].

Misol: bo'lajak ustoz "reading" darsida bitta muammoni ilgari suradi – "Eko-turizm: foydali yoki zararmi?" Matnlar, blogpostlar, statistika – turlicha. O'quvchilar guruhda PBL usulida izlanishadi, qarama-qarshi dalillarni topishadi, so'ng tanqidiy bahs orqali xulosa qilinadi. Bu nafaqat lug'at boylik, balki dalil izlash, manipulyatsiyani payqash, real hayotiy fikr almashish odatini mustahkamlaydi[5].

Raqamli platformalardan foydalanish. Problem-based learning jarayonida onlayn forum, masofaviy bahs, keys-stadi, rolli o'yin, fact-checking saytlari yordamida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari muammoli vazifalarni hal qilishda yanada keng imkoniyatga ega bo'ladi. Boud & Feletti fikricha, raqamli texnologiyalar PBLda dalil topish, manba ishonchligini tekshirish, jamoa bilan muloqot qilish, xulosa qilishni yanada tezlashtirishi, motivatsiyani oshirishi mumkin. Misol: Onlayn forumda "ingliz tili darsida turli matnlar" bo'yicha problem-based vazifa, so'ng har bir ishtirokchi dalillarni "DeepL, ChatGPT, Google Scholar, JSTOR" kabi

vositalardan topish, manipulyatsion ohangni rad etish, ijtimoiy tarmoq sharhlari bilan ilmiy manbani qiyoslash kabi jarayonlar orqali tanqidiy fikrni boyitadi.

Xulosa. Problem-based learning (PBL) yondashuvi – muammoli vazifa, izlanish, munozara va xulosa bosqichlaridan iborat bo'lib, o'quvchilarda tanqidiy fikr, ijodkorlik, muammoli vaziyatda qaror qabul qilish kabi eng muhim kompetentliklarni shakllantiradigan qudratli didaktik strategiya hisoblanadi. Bu yondashuv bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun ham katta ahamiyatga ega. Chunki:

Muammoli o'qitish turli lingvistik, metodik, madaniy mavzularni chuqur o'rganishga, dalil-isbotlarni izchil tahlil qilishga undaydi;

Tanqidiy fikr PBL jarayonining ajralmas qismi sifatida muammoni yuzaga keltirgan sabablar, manipulyatsiya yo'llari, qarama-qarshi fikrlar, ishonchli dalillar, hissiy reaksiya kabi omillarni mustaqil ravishda saralash va xulosa chiqarish imkonini beradi;

Samarali interfaol metodlar (keys-stadi, debate, rolli o'yin, brainstorming, fishbone analizi) PBL bilan uyg'un holda, muammoli topshiriqlarni yechish, dalil so'rash, subyektiv hissiy muhitdan xoli bo'lish, axborot xurujlariga tayyor turish kabi pishiq kognitiv immunitetni rivojlantiradi;

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy mahorati oshishi bilan birga, o'quvchilarga ham mustaqil tafakkur muhitini yaratib berish, ularni shunchaki ma'lumot iste'molchisi emas, balki ijodkor izlanish ishtirokchisiga aylantirish zarurati ro'yobga chiqadi.

Shunday qilib, tanqidiy fikr yuritishni rivojlantirishda "Problem-based learning" yondashuvini qo'llash metodikasi zamonaviy pedagogikada dolzarb yo'nalish hisoblanib, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun, xususan, mustaqil va chuqur fikrga ega bo'lgan, ijodkor va tadbirkor, manipulyatsiyaga berilmaydigan kuchli shaxslar tayyorlashda eng samarali innovatsion strategiya sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Kilroy, D. A. "Problem based learning." *Emergency medicine journal* 21.4 (2004): 411-413.
2. Shayakubov, Shk, and R.X.Ayupov. "Interfaol ta'lim usullari." Toshkent, «Tafakkur-bo'stoni» nashriyoti (2012).
3. Gardner, Howard, and Thomas Hatch. "Educational implications of the theory of multiple intelligences." *Educational researcher* 18.8 (1989): 4-10.
4. Shulman, Lee S. "Those who understand: Knowledge growth in teaching." *Journal of Education* 193.3 (2013): 1-11.
5. Aripova, Ulbosin. "Nofilologik yo'nalishi talabalariga ingliz tilidagi kommunikativ muloqotda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalar va metodlar." *Fan, Jamiyat va Innovatsiyalar* 2.17 (2024): 37-40.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, mart

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 5-son (mart, 2026-yil). – 42 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-mart

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.